

Farg'ona tumani hokimligi rahbarlarining jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslar vakillarini shaxsiy qabul qilish GRAFIGI

F.I.Sh. Lavozimi	Hafta kunlari Vahti	Tashkilot pochta manzili
Imomaliev Sodiqjon Qodirovich Farg'ona tumani hokimi	Payshanba 08.00 - 11.00	Vodil shaharchasi, Marg'ilon ko'chasi 1-uy
Ro'zmatov Azizjon Qo'shmatovich Farg'ona tumani hokimining iqtisodiyot va tadbirkorlik masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari	Dushanba 08.00 - 11.00	Vodil shaharchasi, Marg'ilon ko'chasi 1-uy
Jo'rayev Azizjon Madaminovich Farg'ona tumani hokimining sanoatni rivojlantirish, kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo'jalik bo'yicha o'rinbosari	Seshanba 08.00 - 11.00	Vodil shaharchasi, Marg'ilon ko'chasi 1-uy
Xomidov Diyorjon Baxtiyorovich Farg'ona tumani hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari	Chorshanba 08.00 - 11.00	Vodil shaharchasi, Marg'ilon ko'chasi 1-uy
Rayimjonova Odinaxon Sodiqovna Farg'ona tumani hokimi o'rinbosari, Xotin-qizlar qo'mitasi raisi	Juma 08.00 - 11.00	Vodil shaharchasi, Marg'ilon ko'chasi 1-uy
Xalimov Abduxoshim Abdumalikovich Farg'ona tumani hokimining chegara masalalari bo'yicha o'rinbosari	Shanba 08.00 - 11.00	Vodil shaharchasi, Marg'ilon ko'chasi 1-uy

Farg'ona tuman hokimligining rasmiy web sayti www.fargonatuman.uz

Farg'ona tuman hokimligi manzili: Farg'ona viloyati, Farg'ona tuman Vodil qishlog'i Marg'ilon ko'chasi 1 uy.

150400 Ishonch telefoni: 0 (373) 352-15-64, 352-13-29, 352-12-54

Elektron pochta: info@fargonatuman.uz

E-xat pochta: fargona.t@exat.uz

1. Tuman tashkil topganligi haqida ma'lumot

Tuman 1964 yili tashkil topgan. Tuman markazi - Vodil qishlog'i.

2. Tuman joylashganligi haqida ma'lumot.

Tuman Farg'ona viloyatini sharqiy qismida joylashgan bo'lib, Oltiariq tumani, Quvasoy, Farg'ona shaharlari hamda Qirg'iziston Respublikasi bilan chegaradosh (101,8 km). Umumiy yer maydoni 620 kv.km ni tashkil qiladi.

3. Aholi haqida ma'lumot.

Tumanda 49 aholi yashash punktlari mavjud bo'lib, u yerda 180,1 ming kishi istiqomat qiladi, shundan

shaharda 123,7 ming kishi (68,7%) ni, qishloqda 56,4 ming kishi (31,3%) ni tashkil etadi. Aholini 81,9% ni o`zbeklar, 13,5% ni tojiklar, 3,8% ni qirg`izlar va milliat vakillari tashkil etadi.

4. Qo`shma korxonalar va sanoat korxonalar soni.

Tumanda 1 ta yirik sangoat korxonasi "Chimyon mexanika-ta'mirlash" AJ faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari tumanda 5 qo`shma korxonasi: O`zbek - Izroil "Far Iz" QK, O`zbek - Eston "Feramon" QK, "Modern keramik industriz" QK, Xitoyning "Xuan-Xay" hamda "V&B Chemical" chet el korxonasi ro`yxatga olingan.

5. Yangi yaratilgan ishchi o`rinlar.

Tumanda yangi yaratilgan ishchi o`rinlar soni - 2621.

6. Kichik biznes sub'ektlari va fermer xo`jaliklari.

Kichik biznes sub'ektlarining umumiy soni 3379 ta, shundan 2744 tasi fermer xo`jaliklari (har bir fermer xo`jaligi uchun o`rtacha yer maydoni 8,6 ga).

7. Bilim yurtlari va sog`liqni saqlash ob'ektlari.

Tumanda 34281 ta o`quvchiga mo`ljallangan 62 ta o`rta umumta'lim maktablari, 4420 ta talabaga mo`ljallangan 7 ta kasb hunar kollejlari mavjud. Bundan tashqari 585 ta bemorga mo`ljallangan 7 kasalxona, 24 shifoxona va 17 qishloq vrachlik bo`limlari faoliyat yuritmoqda.

2017-05-04 15:47:04